

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
"MUHANDISLIK GRAFIKASI VA MEXANIKASI" KAFEDRASI MAJLISI
17-SON BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

Toshkent shahar

15.04.2023 yil

QATNASHDILAR: kafedra mudirasi D.A.Mamatova, dotsentlar U.T.Rixsiboyev, F.A.Abduraximova, Z.A.Shodmonqulov, O.A.Ortiqov, N.V.Dremova, K.I.Axmedov, katta o'qituvchilar X.E.Xalilova, X.T.Nurullayeva, O.R.Azimov, U.T.Alimov assistentlar A.V.Axmetbekova, J.R.Karimboyev, D.N. Ibrohimova, A.Abdusamatov, S.Nazarov laboratoriya mudiri D.N.Ergasheva

KUN TARTIBI:

4. O'zaro darsga kirishlar muxokamasi.

4. ESHITILDI:

Kafedra mudirasi D.A.Mamatova tomonidan professor-o'qituvchilari bilan ochiq darslar va o'zaro darsga kirishlarni muxokama qilindi. O'zaro darslarga kirish jadvaliga asosan kafedra assistenti D.N.Ibrohimova tomonidan tasdiqlangan jadval asosida 2023-yil 4-aprel kuni Dars D.N.Ibrohimovanning 60721200-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 5-22 guruhda, soat 10-00 da 1-315- auditoriyada "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanidan "Tahrirlash asboblari panellaridagi barcha buyruqlarni misollar yordamida o'zlashtirish" mavzusida amaliy mashg'ulotdan "Ochiq dars" o'tib berilganligi, unda ichki va tashqi ekspertlar ishtirok etganligi to'g'risida ma'lumot berdi. Ichki ekspert kafedra T.f.n. dotsenti, F.A.Abduraximova, tashqi ekspert Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasida dotsenti N.X.G'ulomova. Kafedra T.f.n. dotsenti, F.A.Abduraximova D.N.Ibrohimova darsini tahlil qilib, darsni kalendar-reja asosida o'z vaqtida boshlagani, darsda 5-22 guruhda, 27 ta talabadan 26 ta talaba qatnashganligi bu 95% ni tashkil qatnashganligi hamda, "Tahrirlash asboblari panellaridagi barcha buyruqlarni misollar yordamida o'zlashtirish" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi talab darajasida tayyorlanganligi, O'tgan darsni mustahkamlash maqsadida avvalgi mavzu bo'yicha talabalar bilimini tekshirishni amalga oshirish uchun bir nechta savollar berilganligi, ya'ni, Tahrirlash asboblari panellaridagi barcha buyruqlarga qaratilgan aqliy hujum, blits-so'rov metodlarining mazmuni ham diqqatni jalb qiladigan holatda tanlanganligi, va fanning namunaviy dasturi (sillabus), ishchi dasturi, kalendar-reja, o'quv-uslubiy modul, fan o'quv qo'llanmasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda o'tkazilganli va massiv buyrug'iga oid misollar AutoCad dasturi yordamida bosqichma- bosqich chizib ko'rsatilib berilganligi shuningdek, o'qitishning interfaol usullaridan (birgalikda o'rganish) foydalanilganligi hamda Ochiq dars xulosa va uy vazifasini berish bilan yakunlanganligi ma'lum qildi.

Qaror qiladi:

Kafedra assestenti D.N.Ibrohimova "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanidan "Tahrirlash asboblari panellaridagi barcha buyruqlarni misollar yordamida o'zlashtirish" mavzusida o'tkazgan ochiq darsi Oliy ta'lim Nizomi talablariga to'laqonli javob beradi deb hisoblansin.

Kafedra mudiri

Laboratoriya mudiri



D.A.Mamatova

D. Ergasheva